

"DEVONU LUG‘OTIT TURK" ASARIDA MAQOLLAR TAHLILI

Elmira Qurbonova

TerDu o‘zbek filologiyasi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida keltirilgan maqollar tasnifi, ma’naviy jihatdan boyligi va shu bilan birgalikda bu maqollarning hozirgi kundagi muqobili ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birgalikda bu maqollarning hozirgi kundagi frazeologik birliklarning taraqqiyotiga qanday hissa qo‘shganligi tahlil qilinganligini ushbu maqolada ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: fraza, qotib qolgan maqol, frazeologik birliklar birliklar

Kirish: Devonu lug‘otit turk“ („Turkiy so‘zlar devoni“) — Mahmud Qoshg‘ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda 11-asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Mana shunday qimmatli ma’lumotlar bilan birgalikda maqol va frazeologik birliklarga ham katta e’tibor berilgan va hozirgi kundagi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Bu masalalarni quyida ko‘rib chiqamiz.

Muhokama va natijalar: Tulku o‘z iniga ursa, ujuz bo‘lur» («Tulki o‘z uyasiga qarab ulisa qo‘tir bo‘ladi») Mahmud Koshg‘ariy izohlashicha, «bu maqol o‘z elini, urug‘ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi». Ma’naviy jihatdan maqol o‘z ildizga o‘zi bolta urdi qabilida bo‘ladi. Chunki o‘z yashagan ini (inson vatani) ga qarab urgan (sotqinlik, yomonlash) ujuz bo‘lur (qo‘tir bo‘ladi ya’ni ko‘r bo‘ladi demoqchi) o‘z -o‘zlik olmoshi o‘zgarishga uchramagan, ursa-ulisa (hozirgi kunda itlarning akillashiga nisbat berib ishlatiladi). Ujuz-qo‘tir bu so‘zning ma’nosi tubdan o‘zgarishga uchragan bo‘lib buni leksik o‘zgarishga olsak bo‘ladi. Til xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak: tulku -bitta "u" tovushi "i" ga almashishi bilan shu paytgacha saqlanib kelgan.

"Erik erpi yag‘lig“, ermagu bashi. Erik-hozirgi kunda muqobili tirishqoq ammo o‘zi ishlatilmaydi, erpi-labi bunda er-ir kabilar lab ma’nosini bergan qadimda va egalik qo‘shimchasi -i ham o‘sha paytdan shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin, yag‘lig‘ -yog‘li ma’nosida fonetik o‘zgarishni hisobga olmaganda bu so‘z o‘ziday yetib kelgan yag‘-yog‘ va qadimda -lik qo‘shimchasi o‘rniga -lik, -lig, -luk kabi qo‘shimchalar ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin. Ermagu- erinchoqning, bunda tovush bilan -ning qo‘shimchasini ham berib o‘tgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki ermag -erinchoq

ma'nosini beradi... Bu maqol yalqovlikni tashlashga, g'ayrat bilan ishlashga undab aytiladi.

"Suv ichirmasga sut ber". Bu maqol tahlilga muhtoj emas chunki so'zlar deyarli o'zgarishsiz yetib kegan. U senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, degan ma'noda ishlatiladi.

"O'kuz azaqi bo'lg'incha, buzag'u bashi bo'lsa yik". O'kuz-ho'kiz, azaq -bu davrda y-z lashish hodisasi bo'lgan bunaqa hodisalardan -y lashish, -d lashishlarni olishimiz mumkin, bo'lg'incha- bunda -guncha qo'shimchasi -g'incha tarziga o'zgaradi, buzag'u-buzoqning mana bu yerda ham -u qo'shimchasining - ning ni ifodalab kelishiga misol ko'rishimiz mumkin, bash-bosh a-o fonetik o'zgarishga uchragan, yik- yaxshi. ("Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq"). U «mustaqillik bo'ysunishdan yaxshi» degan ma'noda qo'llanadi. "Tavg'ach xanning to'rquasi telim, tenglamazib bichmas, malol olmaydilar" d" xanxon, to'rqu -gazmol telim-bisyor, tenglamazib-o'lchamay-bunda - ma qo'shimchasi - - may inkorni bergan. ("Qoraxitoy) xoqonining ipak gazmoli ko'p, lekin o'lchamay kesilmaydi"). Bu maqol ishni boshida puxta o'ylab qilishga undab, isrofgarchilikka qarshi aytilgan.

"Uma kelsa, qut kelar" uma-mehmon, kelsa-kelsa, qut-baxt, baraka, qut, kelar-kelar. ("Mehmon kelsa qut kelar"). Bunda "senga mehmon kelsa, u bilan birga baraka, qut-baxt keladi, qo'noqni yaxshi qarshi oladilar egan fikr ilgari surilgan. "Qiz kishi savi yo'rig'li bo'lmas" Qiz-baxil, yana boshqa manbalarda qiz Asil qimmatli ma'nolarda ham keladi va hozirgi kundagi muqobili tubdan o'zgarib ketgan. Savi yorig'li - obro'-e'tibor, ("Baxil odam obro' topmaydi"). Bu maqol odamlarni yaxshi nom chiqarish, saxiy bo'lish uchun undab aytiladi.

"Erdam bashi til" ("Odobning boshi til") Erdam-odobning, bashi-boshi, til-o'zgarmay saqlangan birlik.

"Qush qanotin er atin" bu maqolda qush qanoti bilan er kishi oti bilan degan ma'no kelib chiqadi. Mana shu maqoldan ham ko'rishimiz mumkinki -in qo'shimchasi hozirgi bilan bog'lovchisiga teng.

"Uluk jag'iri og'ulqa qalir" bu maqolda ot kuragidagidagi yag'iri o'g'ilga (bolalarga) meros demoqchi. uluk-otning yelka qismi, jag'iri -yag'iri bunda j-lashish hodisasi, o'g'ulqa -o'g'ilga qa- ga ma'nosida kelishini ko'rishimiz mumkn, qalir-qolar, qoladi, ma'nolarida.

Kishi alasi icdin, jilqi alasi tashdin. Bu maqol hozirgi kundagi "odam olasi ichida" degan maqolga to'g'ri keladi. Ma'nosi "kishi olasi (ichi qoralik yomonlik) ichida, mol olasi tashida (rangga urg'u berilyapti)

Tahlilga kelsak kishi - hozirda ham muqobili va ma'nosini yo'qotmagan so'z, alasi tovush o'zgarishi 'olasi' icdin-bunda ich so'zidan -din qo'shimchasini ajratib olsak hozirgi kunda -da qo'shimchasini beradi. Jilqi -yilqi bunda ham j-lashish

hodisasini ham ko'rishimiz mumkin. Tashdin-bunda ham -din qo'shimchasi -da qo'shimchasiga urg'u beryapti.

"Anduz bolsa, at ölmäs" Anduz (o'simlik turi) Yongingda anduz bo'lsa oting o'lib qolmaydi degan ma'noda. Bunda qo'llangan har bir qo'shimcha va so'zlar hozirgi kunda bizgacha o'zgarishsiz yetib kelgan hisoblanadi..

It isirmas, at tepmäs te'mä .Bunda it qopmas ot tepmäs dema hayvon hayvonligicha qoladi degan ma'no bor, chunki itning vazifasi tishlash bo'lsa oting vazifasi tepish. Tahlilga qaraydigan bo'lsak: it o'zgarmasdan yetib kelgan siz, isirmas -qopmas bunda hozirgi kundagi muqobiliga umuman to'g'ri kelmaydi, at -ot tovush o'zgarishi bilan yetib kelgan hisoblanadi, tepmäs -bu so'z ham qo'shimchalari bilan bir xil holatda yetib kelgan o'zgarmasdan, tema -bunda d- tovushining o'sha davrda t-tovushiga almashganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa: Asar boshdan oyoq yangi va hozir ham ishlatilayotgan yoki muqobiliga ega so'zlar va leksikonlar bilan juda boy. Va eng quvonarlisi shundaki ba'zi so'zlar shundayligicha va ba'zilari fonetik o'zgarishga uchrab saqlanib qolgan. Bunday so'zlardan yana bir qanchasi shevada saqlangan. Maqollar tahliliga kelsak bu maqollar hozirgi kunda biroz o'zgarish kiritilib qo'llanib kelmoqda. Ammo mohiyat devonu lug'otit turkdan olingan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu qomusiy asar bo'lib nafaqat maqol balki o'z ichiga hamma narsani qamrab olgan asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. Eng eski turk adabiyoti namunalari. Samarqand, 1927
2. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" uch tomlik. I, II, III tomlari.
3. Mirzaaliyev I. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi. -T., 2020